

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIV TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH

To'qliyeva Matluba Boqiyevna

Xalqaro innovatsion universiteti Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14503108>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ tafakkurini shakllantirishning dolzarbligi haqida bayon etilgan. Shuningdek bolalarda kreativlikni rivojlantirishda hamkorlik muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, o'quvchi, shaxs, ta'lim, tarbiya, kreativlik, kreativ tafakkur.

DEVELOPING CREATIVE THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article states about weightness of forming creative mentality among pupils in primary education. In addition to this, It is outlined about combination of forming creative mentality among children is very essential

Keywords: teacher, pupil, person, education, upbringing, creativity, creative mentality.

ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. В данной статье описывается важность формирования творческого мышления учащихся младших классов. Также подчеркивается, что сотрудничество имеет важное значение в развитии творческих способностей детей.

Ключевые слова: Учитель, ученик, личность, образование, воспитание, творчество, творческое мышление.

KIRISH

O'zbekistonning mustaqillikka erishgani, har tomonlama jadallik bilan rivojlanib borayotgani, Respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar jamiyatimiz ijtimoiy hayotida tub burilish boshlab berdi. Barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham ko'plab ko'zga ko'rinarli tub burilishlar, innovatsion faoliyat jarayonlari bilan uyg'unlashtirildi. Darhaqiqat, Prezidentimiz "O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi"- deb ta'kidlab o'tdilar.

Respublikamizda “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” tasdiqlandi, yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, umumiy o‘rta ta’limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari hamda fan o‘quv dasturlari ishlab chiqildi, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me‘yoriy asoslari yaratildi. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida o‘quvchi yoshlarning har tomonlama ijodiy salohiyatini rivojlantirish, o‘zlarining bor qobiliyatlarini ishga solib ta’limning barcha sohalarida sifatni tubdan oshirishlari talab etiladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirish, xalqaro talablarga javob beradigan kadrlarni tayyorlash haqida so‘z yuritar ekanmiz o‘quvchilarni nafaqat har tomonlama yetuk, ilm asoslarini mukammal egallagan balki kreativ fikrlay oladigan, g‘oyaviy jihatdan chiniqqan, kelajakda o‘z kasbining yetuk mutaxasisi qilib tarbiyalash bugungi kunning asosiy talabidir.

Kreativlik so‘zi ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo‘llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta’riflagan.

Kreativlik lotincha “create”- yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor degan ma’nolarni ifodalaydi. Kreativlik- individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma’nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi.

O‘qituvchi bilan o‘quvchi hamkorligi o‘qituvchining o‘quvchilarga ko‘rsatadigan yordamidan boshlanadi. U asta-sekin faollashib o‘quv harakatlariga aylanadi. Natijada o‘qituvchi va o‘quvchi munosabati hamkorlik pozitsiyasiga o‘tadi. Ammo bu jarayonda o‘qituvchi nihoyatda ehtiyotkor bo‘lishi talab etiladi. Negaki ayni shu jarayonda o‘qituvchi o‘zi bilmagan holda bolalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishdan to’sib qo‘yishi mumkin. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, ta’lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega bo‘lib o‘qituvchi va o‘quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o‘qituvchi ta’lim jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi, ta’lim maqsadlarining to‘g‘ri amalga oshirilishi va ta’lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo, bu ta’lim jarayoni to‘liq o‘qituvchining hukmronligi ostida degan noto‘g‘ri fikrning tug‘ilishiga asos bo‘lmasligi kerak. Zamonaviy ta’lim berishning talabi ham kimnidir bo‘ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini

o'zlashtirishgina bo'lib qolmasdan balki shaxsning umumiy ijtimoiy- madaniy qobiliyatlarini shakllantirishga ham qaratilishi lozimligini unutmaslik lozim. O'qituvchi sifatida bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- o'quvchilar tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash:

- o'quvchilarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish:
- o'quvchilar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etish uchun imkoniyat yaratish:
- o'quvchilarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar esa shaxsda kreativlikning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi:

- o'zini tavakkaldan olib qochish:
- bolaning fikrlashi va xatti-harakatlariga nisbatan qo'pollik bilan javob qaytarish:
- bolaning shaxsiy fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi:
- boshqalarga tobe bo'lish:

Boshlang'ich ta'lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o'rganishni talab etmoqda. O'quvchilar o'z-o'zidan kreativ bo'lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. O'qituvchilar o'quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o'quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarni o'zgacha yondashuvli ya'ni kreativ bo'lishlariga erishishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o'quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu o'quvchilarni o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo'ladi.

Kreativlik - bu vazifa yoki muammo haqida yangi yoki boshqacha fikr yuritish qobiliyati yoki yangi g'oyalarni yaratish uchun tasavvurdan foydalanish qobiliyati. Kreativlik bizga murakkab muammolarni hal qilish yoki vazifalarni hal qilishning qiziqarli usullarini topish imkonini beradi. Kreativlik va ijodkorlik ma'lum ma'noda bir xil tasavvurni shakllantiradigan qobiliyatni ifodalaydi. Ijodkorlik o'z-o'zidan paydo bo'ladigan aqliy jarayon bo'lsa-da, u doimiy izlanishni, muayyan sohada tajriba va o'ziga xos rivojlangan sezgini talab qiladi. Ijodkorlik ongini o'zgartiradi va ijodkor odamlar ijod davrida o'zlarini o'zgartiradilar. Ijodiy davrlarda odamni oddiy dunyodan ancha yuqoriga ko'taradigan energiya shoshiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari gapirganda, yurganda, fikr yuritganda, dars jarayonlaridagi faoliyat jarayonlarida, shu bilan birga muloqotga kirishganda yoki yozishda faol ijodkor bo'lishi mumkin, chunki ijodkorlik ishga olib

keladigan sezgi sifati bilan bog'liq. Biroq, ijodiy bo'lish har doim ham tashqi harakatlarni talab qilmaydi.

Ijodkor bo'lish - jasoratli bo'lish, tajriba o'tkazish, tavakkal qilish va yangi narsa yaratish demakdir. Ijodkorlik ongning o'tkir qiziqish tuyg'usiga ega bo'lish qobiliyatidir va shuning uchun biron bir soha bilan chegaralanmaydi. Idrok, muammoni hal qilish, his-tuyg'u, xotira va boshqalar kabi ko'plab psixologik jarayonlar ishtirok etadi. Ijodkor odamlar ko'p qirrali bo'lishga moyil bo'lib, o'z borlig'ining turli tomonlarini uyg'unlashtirish orqali ular hayratlanarli xarakterga ega bo'lishlari mumkin. Ularda hech kimga o'xshamagan xislatlar: ijodiy, mantiqiy, mustaqil, tanqidiy fikr yuritish, har sohani ilg'ay olishga qaratilgan boy tasavvur olami, o'z tuyg'ularini nazorat qilgan holda hissiy barqarorlik, har bir ishni bajarishga nisbatan, qa'iy intizom va tartib, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ko'plab izlanish olib borish, g'oyalar yaratish ularni sinab ko'rish hamda, muqobilini tanlash borasida bilim va tajriba shuningdek, o'zini boshqalardan ustun tutmagan holda kamtarlik namoyon bo'ladi.

XULOSA

O'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirish zamon talabi . Bu jarayonda esa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining roli katta. Ular o'z o'quvchilarining ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlab borishi va doimiy ravishda rivojlantirib borishlari zarur. Shuningdek, o'quvchilarning kreativ qobiliyatlari rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Xato qilishdan, muvaffaqiyatsiliklardan cho'chish, haddan tashqari baholarga e'tibor qaratish, tanqidga uchrashdan qo'rqish hissi mavjud o'quvchilarda kreativlik odatga aylanmaydi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son Qarori. Qonun xujjatlari to'plami milliy bazasi. 2017.
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston", 2017 yil
3. Jo'rayev P.X., Raximov B.X., Xomatov SH.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'limga asoslangan o'quv-metodik qo'lanma. –T.: Fan, 2005
4. Aliyev A. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. –Toshkent: O'qituvchi, 1991.